

SUD TIZIMIDA OCHIQLIK OSHKORALIK, ADOLATNING MUHIM MEZONI

**Fuqarolik ishlari bo'yicha Toyloq
tumanlararo sudi sudyasi
G'afurov Nodirjon Nazrullayevich**

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud tizimida ochiqlik oshkoralik, adolatning muhim mezoni ekanligi atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sud, oshkorlik, globallashuv

Jamiyat hayotining hozirgi globallashuv, tezkor jarayoni barcha sohalarda ochiqlik, oshkoralik, demokratik tamoyillarga amal qilgan holda izchil islohotlar olib borish, aholi manfaatlarini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlashda yangicha yondashuvlar joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, bu axborot almashinuvi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, fuqarolarga xolis axborot yetkazish davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida ishonchlilikni yanada mustahkamlaydi.

Shu o'rinda qayd etish joiz, so'nggi yillarda sud-huquq tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda, eng avvalo, O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, shu bilan birga, yurtimizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar muhim dasturilamal bo'lyapti. Chunonchi, birgina "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda mamlakatimizda sud tizimi ochiqligi va uning kafolatlari aniq ifodalandi.

Binobarin, ushbu hujjatga ko'ra, qonunchilikda nazarda tutilgan holatlardan tashqari, barcha sudlarda ishlar ochiq ko'rilishi, sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalida qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkinligi belgilandi. Bu, o'z navbatida, odil sudlovning ommaviy axborot vositalari orqali aholi huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari buzilishi bo'yicha ayrim og'riqli masalalarni bartaraf etishda muhim o'rin tutmoqda.

Sud tizimi ochiqligini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati haqida jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish bugun har qachongidan dolzarb. Shu maqsadda har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o‘rinbosarlari tomonidan brifinglar o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Natijada OAVda, qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on axborotlar tarqalishining oldi olinmoqda.

Muhim amaliy ishlardan biri — qabul qilingan sud hujjati o‘qib eshittirilganidan so‘ng, uning mazmun-mohiyati sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilyapti, sudlar chiqargan qarorlar Oliy sud veb-saytida muntazam ravishda e‘lon qilib borilmoqda. Bu aholi o‘rtasida turli tushunmovchiliklar kelib chiqishining oldini olish, odamlarimizning joylarda sudma-sud sarson bo‘lib yurishlariga barham berishga xizmat qilmoqda. Albatta, bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirish zarur.

Bundan tashqari, Oliy sudda Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi (PR Markaz) hamda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda matbuot xizmatlarining tashkil etilganligi aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish va sud hokimiyatining ochiqligini oshirish yo‘lida ko‘rilgan muhim chora bo‘ldi. Ayni paytda sud tizimi matbuot kotiblari yordamida axborot almashinuvida, ya‘ni ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ochiqlik, xolislik va ishonchlilik kabi asosiy mezonlar ta‘minlanmoqda.

Yana bir ahamiyatli jihati, sud jarayonida ishlarning oshkora ko‘rilishi, tortishuv tamoyilini to‘liq ta‘minlash maqsadida jinoiy-protsessual qonunchilikka 2021 yil fevraldan dastlabki eshituv instituti joriy etildi.

Shu o‘rinda dastlabki eshituv instituti qanday protsessual jarayon va uning maqsadi nimalardan iborat? degan savol tug‘iladi.

Qayd etish joiz, ushbu institutning maqsadi — sud majlisida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan protsessual qonun buzilishlarining oldini olibgina qolmay, jinoyat ishini ochiq sud majlisida mukammal ko‘rish uchun tayyorlashdan iboratdir.

Shulardan kelib chiqib, yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, bu institut sud muhokamasiga tayyorgarlik ko‘rish bilan birga, fuqarolarning huquq, erkinliklari

tiklanishiga, ularning sud va tergov organlari idoralarida behuda vaqt sarflashiga barham berishga, protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun davlat tomonidan ajratilgan mablagʻlar maqsadsiz yoʻnaltirilishining oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ayni paytda protsessual muddatlar sababsiz choʻzilishining oldini olish natijasida qonuniy va asosli qaror qabul qilinishiga zamin yaratadigan bosqich sanaladi.

Aytish kerak, bugun dastlabki eshituv amaliyotidan koʻplab mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Ayrim davlatlarda sudyaning dastlabki eshituv borasida qabul qilgan qarori ustidan shikoyat qilish huquqi mavjud emas. Milliy qonunchiligimizda dastlabki eshituv instituti amaliyotga joriy etilgani barobarida, fuqarolarning shikoyat keltirish bilan bogʻliq huquqlari ham taʼminlangani diqqatga sazovor. Chunki shikoyat qilish huquqi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlaridan biridir. Shu maʼnoda aytganda, mamlakatimizda inson huquq va qonuniy manfaatlarini taʼminlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Muxtasar aytganda, soʻnggi yillarda sud-huquq yoʻnalishida hayotga tatbiq etilayotgan muhim hayotiy chora-tadbirlar ushbu tizimni takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga, ochiqlik va adolatlilik tamoyillariga yanada yaqinlashtirish yoʻlida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eng muhimi, odamlarning odil sudlovga boʻlgan ishonchini mustahkamlayapti. Albatta, bularning barchasi pirovardida yangi Oʻzbekistonda odil sudlovni taʼminlash, inson huquqlarini izchil kafolatlash, sudlar faoliyatidan xalqimizni rozi qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://parliament.gov.uz>
2. <https://sud.uz/>